ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 4/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 4/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 4/1

ТОШКЕНТ-2026

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4/1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-4/1

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Заитов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Farfiev Baxrom
FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI……...5

2. Karimov Bobir
YANGI ÖZBEKISTON ŞAROITIDA YOŞLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRIŞNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI……16

3. Yunusov Kamaldin
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI…….24

4. Сабирова Умида, Нигматуллина Алина, Румянцева Екатерина
НЕЭТИЧНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА…….31

5. Якубов Ильдар
СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: КАК СОТРУДНИЧЕСТВО ВЛИЯЕТ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….40

6. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA INKLYUZIV TARAQQIYOTNING SOTSIOLOGIK DISKURSI…..48

7. Musurmanov Nodirbek
INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI……56

8. Alimuxamedova Nodira
GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI……65

9. Nematova Dilfuzaxon
JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI……..71

10. Qosimov Vohid
DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA’MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI…….78

11. Husenov Sirojiddin
IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAKATI BILAN UYĞUNLIGI……..88

12. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA KAFOLATLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLAŞ IMKONIYATLARI…….93

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Qosimov Vohid,
Mirzo Uluğbek nomidagi
Özbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotçisi
e-mail: voxidkosimov@mail.ru

DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA'MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24134480

ANNOTATSIYA

Maqolada halollik va adolat sözlarining etimologik kelib çiqişi hamda davlat va jamiyat boşqaruvida halollik va adolatning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy ahamiyati oçib beriladi. Tarixiy-qiyosiy, germenevtik va sotsiologik yondaşuvlar asosida Şarq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Sohibqiron Amir Temur va Alişer Navoiyning ta'limotlarida davlat xizmatida halollik va adolatning ustuvorligi nazariy tahlil qilinadi. Şuningdek, Ğarb mutafakkirlaridan Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Nikkolo Makiavelli, Tomas Gobbs va Şarl Lui Monteskyoning davlat boşqaruvida halollik va adolatni örnatişga doir yondaşuvlari tahlil qilinib, ikki an'ananing umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi hamda ularning bugungi davlat xizmatidagi ahamiyati körsatib beriladi.

Kalit sözlar: davlat xizmati, davlat boşqaruvi, halollik, adolat, korrupsiya, Şarq mutafakkirlari, Ğarb mutafakkirlari, sotsiologik yondaşuv, antikorrupsion madaniyat, ijtimoiy şartnoma, adolatli davlat, huquqiy ong.

Косимов Вохид,
Независимый исследователь
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
e-mail: voxidkosimov@mail.ru

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЧЕНИЙ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ОБ ОБЕСПЕЧЕНИИ ЧЕСТНОСТИ И СПРАВЕДЛИВОСТИ НА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЕ

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается этимологическое происхождение понятий «честность» и «справедливость», а также их социальное, политическое и правовое значение в управлении государством и обществом. На основе историко-сравнительного, герменевтического и социологического подходов теоретически анализируется приоритет честности и справедливости на государственной службе в учениях восточных мыслителей Абу Насра Фараби, Низам аль-Мулька, Амира Тимура и Алишера Навои. Также анализируются подходы западных мыслителей Фомы Аквинского, Роджера Бэкона, Никколо Макиавелли, Томаса Гоббса и Шарля Луи Монтескье к утверждению честности и справедливости в

государственном управлении, выявляются общие и отличительные черты двух традиций и их значение для современной государственной службы.

Ключевые слова: государственная служба, государственное управление, честность, справедливость, коррупция, восточные мыслители, западные мыслители, социологический подход, антикоррупционная культура, общественный договор, справедливое государство, правосознание.

Kosimov Vokhid,
Independent researçer
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
e-mail: voxidkosimov@mail.ru

THEORETICAL ANALYSIS OF THE TEAÇINGS OF EASTERN AND WESTERN THINKERS ON ENSURING HONESTY AND JUSTICE IN PUBLIC SERVICE

ABSTRACT

The article examines the etymological origin of the concepts of honesty and justice and their social, political and legal significance in state and public governance. Based on historical-comparative, hermeneutic and sociological approaçes, it analyzes the priority of honesty and justice in public service in the teaçings of Eastern thinkers Abu Nasr al-Farabi, Nizam al-Mulk, Amir Timur and Alişer Navoi. The views of Western thinkers Thomas Aquinas, Roger Bacon, Niccolò Maçiavelli, Thomas Hobbes and Çarles Louis Montesquieu are also analyzed, and the common and distinctive features of both traditions and their relevance for modern public service are identified.

Key words: public service, public administration, honesty, justice, corruption, Eastern thinkers, Western thinkers, sociological approaç, anti-corruption culture, social contract, just state, legal consciousness.

KIRIŞ

Bugungi kunda global dunyoning umumiy manzarasida davlat boşqaruvini yanada samarador qiliş va muvaffaqiyatli amalga oşirişda ba’zi davlatlarda hanuzgaça davlat boşqaruvida, davlat xizmatlarini amalga oşirişda, ijtimoiy va iqtisodiy sohada, huquqni muhofaza qiliş tizimida korrupsiya holatlari turli körinişlarda röy berib, sof demokratik qadriyatlarni barbod qilayotganga öxşaydi.

Davlat boşqaruvi samaradorligini pasaytirişning eng muhim omillaridan biri bu korrupsiyadir. Şuningdek, korrupsiyani jamiyatda tizimli va institutsional xususiyatiga ega bölgan iç-içidan buzğunçi ğoya sifatida namoyon bölişidir. Korrupsiyaviy munosabatlari köp jihatdan davlat hokimiyati mexanizmlarini disfunksiya holatiga keltirib, gibrid körinişdagi institutiga aylanib boradi. Korrupsiyaga aloqador mansabdor şaxslar esa davlat boşqaruvini obrösizlantirib, ularni korrupsiya orqali turli jinoyat sodir etişiga sabab böladi. Korrupsiyaning eng xavfli jihati şundaki, u özini-özi köpaytiriş xususiyatiga ham egadir. Yangi Özbekiston jamiyatida korrupsiyani deinstitutsionalizatsiya qilişning keng kölamli korrupsiyaga qarşi kuraşiş harakati davlatning ustuvor siyosatiga aylanganligi va davlat tomonidan korrupsiyaning har qanday körinişlarini bartaraf etiş böyiça körilayotgan amaliy çora-tadbirlarning samaradorligi uşbu muammoni bartaraf etişga Yangi Özbekiston davlati qodir ekanligidan dalolat beradi.

Davlat xizmatçilariga halollikni singdiriş masalasining ötkirligi azaldan dolzarb masala sifatida tadqiqot obyektiga aylanib kelgan. Jumladan, davlat boşqaruvida iştirok etuvçi barça amaldorlar öz vazifalarini ötaşda ularda adolat, sadoqat va halollikni davlat hukmdori tomonidan qöyilgan birinçi darajali talabi bölişi lozimligi borasidagi fikrlar dastlab, antik davr faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu tomonidan ta’kidlangan bölsa, Şarqda, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid Ğazzoliy, Abu Xasan Ali ibn Muhammad al Basri al Mavardiy, Ibn Xaldun, Alişer Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Şarqning buyuk mutafakkirlari öz asarlarida davlat xizmatçilariga halollikni singdiriş borasida turliça fikr va

yondaşuvlarni öz asarlarida bayon qilganlar. Bu masala bugungi kunda ham dolzarbligini yöqotmagan: Prezident Ş.Mirziyoyevning “Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uçun” asarida adolatli davlat va qonun ustuvorligi ğoyalari davlat siyosatining ustuvor yönalişi sifatida belgilangan [12].

METODOLOGIYA

Davlat fuqarolik xizmatçilariga halollik vaksinasini singdirişda “Komplayens-nazorat” tizimi rolini oşiriş masalasini Yangi Özbekistonning ijtimoiy voqeligi bilan boğliq jihatlarini tadqiq etişda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Ş.Mirziyoyevning asarlari qimmatli manba vazifasini ötaydi. Davlat xizmatçilarida halollik qadriyatlarini rivojlantiriş masalasining dolzarbligi azaldan dolzarb masala sifatida tadqiqot obyektiga aylanib kelgan. Jumladan, mamlakat fuqarolarining siyosiy, huquqiy va sotsial ongini rivojlantiriş bilan birga davlat xizmatidagi amaldorlarida halollik qadriyatlarini rivojlantiriş haqidagi fikrlar dastlab, antik davr faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu tomonidan ta’kidlangan bölsa, Şarqda, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Xasan Ali ibn Muhammad al Basri al Mavardiy, Ibn Xaldun, kabi Şarq mutafakkirlarining öz asarlarida turliça yondaşuvlarni bayon qilganlar. Ğarb mutafakkirlaridan Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Nikkolo Makiavelli, Tomas Gobbs, Jon Lokk, Şarl Lui Monteskyolar va boşqa mutafakkirlarning asarlarida keltirilgan. Şuningdek, Destut de Trasi, Frensis Fukuyama, Xarold Lassuel, Jon Jost, Samuel Xantingtonlarning asarlarida ham davlatning içki va taşqi siyosatida davlat xizmatçilarining siyosiy tafakkurini rivojlantiriş masalasi diqqat markazida bölgan. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, germenevtik (matnlarni talqin qiliş), mantiqiy-tahliliy hamda sotsiologik yondaşuv usullaridan foydalanildi; Şarq va Ğarb mutafakkirlarining qaraşlari umumlaştirilib, qiyosiy jadval şaklida tizimlaştirildi.

Prezident Ş.Mirziyoyevning “Xalqimiz asrlar davomida diniy va dunyoviy ilmlarni özaro uyğun rivojlantiriş borasida noyob tajriba maktabini yaratgan. Bu fikrning amaliy tasdiğini özining beqiyos ilmiy kaşfiyotlari, ma’naviy-ma’rifiy tafakkuri bilan jahon ahlini hayratda qoldirgan uluğ olimlar va ulamolarimizning bebaho merosi misolida yaqqol köriş mumkin”, degan sözlari uşbu tadqiqotimizni metodologik asosni taşkil qiladi.

ASOSIY QISM

Örta asrlarda Şarqda davlat xizmatçilari siyosiy tafakkurini rivojlantiriş borasidagi manbalarni tahlil qilişda Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar şahri” asari, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari, Ibn Sinoning “Kitob aş-şifo”, “Kitob as Siyosat”, “Kitob an Najot”, “Donişnoma” asarlari, Ibn Xaldunning “Kitob al Ibar” asari, Movardiyning “Ahkomi sultoniya” kabi asarlari davlat xizmatçilari siyosiy tafakkurini rivojlantirişning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarini nazariy tahlil imkonini beradi. Örta asrlar Ğarbiy Yevropada ijtimoiy siyosat, ijtimoiy davlat va inson qadrini yuksaltiriş masalalari Foma Akvinskiyning “Teologiyalar qiymati” asari, Rojer Bekonning “Buyuk inşo” asari, Nikkolo Makiavellining “Hukmdor” asari, Tomas Gobbsning “Leviafan” asari va Jon Lokkning siyosiy qaraşlarida aks etganini tasdiqlaş mumkin.

Davlat boşqaruvini takomillaştiriş böyiça köplab xalqaro taşkilotlar mamlakatda korrupsiyani jilovlaş muammosini hal qilmay turib davlat boşqaruvini va sifatli davlat xizmatlarini samarali taşkil qilib bölmasligini takror va takror ilgari surmoqdalar. Bugungi Yangi Özbekistonning köplab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlari orasida korrupsiyaga qarşi kuraş alohida örin tutadi. 2017-yil 3-yanvarda ÖRQ-419-sonli qabul qilingan Özbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarşi kuraşiş töğrisidagi qonunning qabul qilinişi jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiliş borasida muhim strategik qadam böldi. Şuningdek, 2020-yil 29 iyundagi Özbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-sonli Özbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarşi kuraşiş tizimini takomillaştiriş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisidagi Farmoniga muvofiq Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligi taşkil etilganligi mamlakatda katta tarixiy voqea sifatida demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvçi, inson huquqlarining buzilişiga olib keluvçi, bozorlar faoliyati va investitsiyalarga jiddiy tösqinlik qiluvçi, biznes yuritiş xarajatlarini oşiruvçi, milliy iqtisodiyotni zaiflaştiruvçi, yaşirin iqtisodiyotni şakllantiruvçi, farovonlik darajasini pasaytiruvçi, daromadlardagi tengsizlikni kuçaytiruvçi korrupsiyaning oldini oliş va unga qarşi kuraşişning huquqiy asoslarini belgilab berdi [1].

Sobiq SSSR davridan meros bölib qolgan korrupsiya davlat boşqaruv tuzilmalari bilan çambarças boğlangani sababli, mustaqil Özbekiston olimlarining köplab tadqiqotlarida korrupsiyaga qarşi kuraş davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Özbek davlatçiligida azaldan davlat xizmatçilaridan ruhan poklik, sadoqat, insof, diyonat, adolat va halollik talab qilib kelingan.

Davlat xizmatida halollik va adolatni ta'minlaşning ijtimoiy va ma'naviy asoslarini tahlil qilar ekanmiz, avvalo jamiyat haqidagi sotsiologik yondaşuvlarni ilk manbalarini topişimiz lozim böladi. Buning uçun jamiyat haqidagi ilk qaraşlarni aynan Şarq mamlakatlaridagi diniy qaraşlarida, faylasuflarni ta'limotlarida, mutafakkirlar va davlat arboblarining asarlarini örganiş orqali jamiyat haqidagi ilk sotsiologik yondaşuvlar aynan Şarq mamlakatlarida yuzaga kelganini isbotlab beriş mumkin.

Bizningça, halollik va adolat bir birini töldiruvçi elementlar bölib, bunday tuşunçalarni bir-biridan ajratiş mumkin emas deb hisoblaymiz. Çunki, halollik bölmagan joyda adolat ham bölişi mumkin emas, yoki adolatsizlik hukm surgan muhitda ham halollik ham bölmasligi aniqdir. Şuning uçun jamiyat ravnaqi va samarali davlat xizmatlarini taşkil qiliş uçun uşbu tizimda halollik bilan adolat tamoyillari ham eng ustuvor bölişi lozim.

Özbekiston Milliy ensiklopediyasida "Halol" sözi quyidagiça izohlangan. Halol (arabça erkin, ruxsat etilgan, boğlanmagan) ma'nolarini anglatib, şariatda musulmonlar uçun ruxsat etilgan xatti-harakatlar va işlar, toza va pok hisoblangan oziq-ovqatlar. Qur'on va hadisga köra, suv, sut, non, meva va uning şarbatlari, poliz ekinlari, Allohning ismi aytib söyilgan halol hayvonlar va halol qilingan taomlar, kiyişga ruxsat berilgan kiyimlar haloldir. Halol mehnatdan topilgan mulk, meros, hadya qilingan narsa, ikki tomon roziligi bilan bölgan tijorat tufayli qölga kiritilgan mablağ halol böladi. Şariatda halol hisoblangan narsani harom degan odam kofir hisoblanadi [2, – B. 632].

Fikrimizça, sönggi yillarda mamlakatimizda "Halollik vaksinasi" degan atama qöllana boşlandi. Muhtaram Prezidentimiz Ş.Mirziyoyev taşabbusi bilan halollikni jamiyat vakillarining har birini ongiga singdiriş, davlat xizmati tizimini halol insonlar bilan ta'minlaş, qarorlar qabul qilişda adolat tamoyili ustuvor bölişi böyiça qilingan sa'y-harakatlar bejizga emas. Çunki, davlat xalqning işonçi boşqaça yöl bilan emas, faqat halollik bilan qozonişi mumkin. Halollik bor joyda esa tinçlik, farovonlik va rivojlaniş böladi. Davlat xizmatçisi halol bölsa, uning qaroridan xalq manfaat topadi. Iqtisodiyotda halol raqobat bölsa, investitsiya kirib keladi, innovatsiya ham rivojlanadi. Yoşlar halollikni qadrlab ulğaysa, yurtning kelajagi mustahkam böladi. Demak, halollik şunçaki şior emas, balki davlatning va jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan strategik yönalişdir. Agar halol atamasi arablarning Örta Osiyoga kirib kelişi va islom dinining tarqalişi bilan qöllanila boşlagan bölsa, islomdan oldingi diniy-falsafiy ta'limotlarda bu tuşunça yaxşilik, ezgulik, töğrilik kabi tuşunçalar bilan ifodalangan.

"Avesto" kitobida umuminsoniy tamoyillarga, inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uçun adolat tamoyiliga katta e'tibor qaratilgan. Asarda yaxşilik, yoruğlik, barkamollik, hurfikrlilik timsoli bölgan afsonaviy xudo Ahuramazda, qiyofasida yaqqol namoyon böladi. Zarduştning fikriça, odamlar yaxşilik, yoruğlik kuçlariga ergaşişi, yaxşilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olişi, hayoti davomida Ahuramazda tomonida bölişi lozim. Insonning bu jarayondagi yaxşilikning ğalabasi uçun kuraşda befarq turmasligida, yaşaş tarzida, ma'naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida, "Ezgu fikr, ezgu söz va ezgu amal" tamoyilida namoyon böladi [3, – B. 26-28].

Sotsiolog A.Abdullayev özining tadqiqotlarida "Zarduştiylik dinining Avesto kitobi nafaqat diniy kitob, u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvçi normalar yiğindisi hamdir. Avesto kitobi jamiyat vakillari örtasidagi turli munosabatlardan tortib davlat boşqaruvi darajasidagi munosabatlarni tartibga solişga qaratilgan va har bir munosabatni adolat tamoyilida bölişini ta'minlaydigan ijtimoiy huquqiy asos deb ta'riflaş mumkin. Avestodagi davlat boşqaruviga doir adolat tamoyillarini siyosiy yoki huquqiy munosabat deb ta'riflasak, jamiyat vakillari örtasidagi munosabatlarni tartibga solişda adolat tamoyillarini ijtimoiy ya'ni sotsiologik asos deb eng qadimgi manbalar sifatida e'tirof etiş mumkin", deb ta'kidlagan [4, – B. 75].

Avesto kitobida adolat sözi 74-marta işlatilgan bölib adolat sohibi bölgan hukmdorlar va amaldorlarga "Farrihmand" Avesto "Xavrinavant". Ma'nosi – farradan xabardor yoxud farra sohibi. Farra Avestoda "Xavrina" yoxud "Xarvinanga", qadimgi fors tilida "Farnah", pahlaviyda "Xavarrah"

yoxud “Xavarag”, monaviy bitiklarda “Farrih”, forsçada “Farr“, “Farrih” yoxud “Xavarrih” yoxud “Xurrih” deb nomlangan. Bu şunday ilohiy faroğat va muhabbatdirki undan ogoh bölgan zot yölboşçi, hukmdor böladi, şahriyorlik maqomiga erişadi, adolat sohibiga aylanadi deb keltirilgan. Avesto kitobi jamiyat hayotining barça jabhalarida adolatli böliş buyurilgan. Umuman olganda insonning hayotlik çoğida qilgan barça amallari aynan adolat mezoni bilan ölçangan. Bir söz bilan aytganda davlat va jamiyatni adolatli boşqaruv haqidagi eng qadimiy manba Avestodir [5, – B. 310].

Özbek tilidagi “Adolat” sözining etimologiyasiga e’tibor beradigan bölsak, adolat arabça a’dalatun (عدالة) fe’lidan sözidan olingan bölib, faqat töğri böliş, töğri taqsimlaş, halol böliş, töğri sözli böliş va xolis böliş ma’nolarini anglatadi. Özbek tilining izohli luğatida ADL Bu arabça söz a’dl(un) şakliga ega. Özbek tiliga fathali ayn tovuşini a unlisiga almaştirib qabul qilingan: a’dl (عدل) – adl. Bu söz asli “Juda töğri şaklga ega böldi ma’nosini anglatuvçi a’dala fe’lining I bob masdari bölib, şu fe’lning “Adolatli böldi” köçma ma’nosi asosida hosil qilingan va “Adolatlilik”, “Haqqoniylik” ma’nosini anglatuvçi otga aylangan. Adl sözi hozirgi özbek tilida juda oz işlatiladi, asosan “adl turib ber” birikmasi tarkibida qatnaşadi [6, – B. 15].

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar şahri” asarida “Mamlakatda adolatli jamiyat quriş uçun uni mudofaa qiliş va oqilona boşqariş usulini biliş, odamlarga yovuzlikdan saqlaniş ezgulikka ya’ni halollikka intiliş yöllarini körsatiş lozim. U davlat rahbarining boşqaruv mahorati umumiy baxtga erişiş yölidir”, “Adolatli davlatni ma’rifatli hukmdor boşqaradi, u ma’naviyat, adolat yetakçisi bölişi, öz fazilatlari bilan qat’iy talablarga javob berişi lozim. Ularning özlaridan saylangan rahbar yoki boşliqlar hokimi mutlaq bölmaydi. Ular odamlar içidan kötarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kişilar böladilar. Şuning uçun bunday rahbarlar öz saylovçilarini töla ozodlikka çiqaradilar, ularni taşqi duşmandan muhofaza qiladilar” deb keltirgan [7, – B. 190].

Şuningdek, Abu Nasr Forobiyning şahar va davlatlarga hukmdorlik qiliş uçun ön ikki sifatining ön birinçisida “Tabiatan adolatparvar bölib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon köruvçi, öz odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvçi, barçani adolatga çaqiruvçi, nozik; jabrlanganlarga madad beruvçi, barçaga yaxşilikni va özi suygan gözalliklarni ravo köruvçi bölişi zarur, özi haq iş oldida öjarlik qilmay, odil iş tutgani holda, har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bölişi zarur” deb ta’kidlagani Şarqda azaldan adolat ustuvor tamoyil bölganligini tasdiqlaydi [8, – B. 244–245].

Davlat xizmatini taşkil qilişda adolatni ustun qöyiş borasidagi yondaşuvni Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari ham e’tiborga loyiq. U kişi Saljuqiylar davlatida öttiz yil vazir bölib işlagan davlat va jamiyat arbobi bölgan. Nizomulmulk davlat va jamiyat boşqaruvidagi amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlaş, adolat va halollik oyoq osti qiladigan kişilarni davlat işlariga aralaştirmaslikni, davlatni boşqarişda kengaş bilan olib boriş, faoliyatlarni muntazam nazorat qiliş, itoat, ijro va sifatlari töğrisidagi qaraşlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning “Davlat amallarini johil va nopok kişilarga işonib bölmaydi, faqat pok, porso olimlarga beriş lozim” degan körsatmalari Saljuqiy sultonlarning siyosiy qöllanmasi deb baholaganlar [9, – B. 100].

Sohibqiron Amir Temur Köragon davlat boşqaruv işlarini taşkil qilişda quyidagi işlarni amalga oşirgani özining tuzuklarida bayon qilgan, Amir Temurning davlat boşqaruviga nazar taşlasak, adolat va qudrat timsoli Sohibqiron saltanat boşqaruvidagi mansabdor şaxslarning qöl ostidagi xodimlar va xalqqa nisbatan tamagirlik qilmasliklari uçun ularning moliyaviy ta’minotiga alohida e’tibor berib turganligini qayd etgan. Jumladan, “Temur tuzuklari”da Amir Temur şunday yozadi “Agar askar, soqçi yoki mirşab fuqarolardan bir nima olsa-yu, el qatori haqqini tölamasa, vakolatini suiiste’mol qilsa, nafaqat boş kiyim, balki boşidan ham ajraladi, soliq sohasida soliqçilarim tomonidan sodir qilingan har qanday suiiste’molçilikka nisbatan şafqat qilmadim. Mamlakat xazinaçilari bölmiş moliya vazirlari moliyalaştirişda xiyonat qilsalar va özlaştirib olgan bölsalar, şafqat qilmayman. Agar özlaştirib olgan mablağı öziga tegişli haq miqdoridan oşmasa, mazkur mablağ unga in’om örnida qoldirilsin. Agar özlaştirib olgan mablağı maoşidan ikki baravar ortiq bölsa, ortiği oladigan maoşi hisobidan uşlab qolinsin. Agar maoşidan uç baravar köp mablağ olgan bölsa, hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin” [10, – B. 105].

Ğazal mulkining sultoni va davlat arbobi Alişer Navoiy adolatli davlat va farovon jamiyat haqidagi qaraşlarini özining “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub” asarlarida keltirib ötgan. Navoiy ta’limotlarida, bir tomondan hukmdor va boğbonni, boşqa tomondan davlat va boğni soliştiradi. Unga köra, agar boğbon aqlli va mehnatsevar bölsa, uning boği gullab-yaşnaydi. Xuddi şunday agar mamlakatni aqlli, dono, adolatli, xalqi uçun qayğuradigan va uni sevadigan hukmdor boşqarsa öşa davlat rivojlanib farovonlaşadi hamda jamiyat bir butun kuçga aylanib, davlatni va davlat hukmdorini qöllab-quvvatlaydi hamda himoya qiladi [11, – B. 115].

Muhtaram Prezidentimiz Ş.Mirziyoyev adolatli davlat tuşunçasiga quyidagiça ta’rif bergan. Jumladan, “Adolatli davlatning xususiyati şundayki, u avvalo qonun ustuvorligini qaror toptirişi kerak. Şu bois, biz öz faoliyatimizning birinçi kunidan “Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qiladi”, degan siyosatni, ya’ni, inson qadrini uluğlaş, inson manfaatini ta’minlaş tamoyilini eng ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik”, degan sözlari adolatli davlat tamoyili azaldan özbek davlatçiligining ustuvor tamoyili bölganini tasdiqlaydi [12, – B. 145].

Fikrimizça, Muhtaram Prezidentimiz Ş.Mirziyoyevning uşbu sözlaridan şuni anglaş mumkinki, adolat bu barçani qonunlarga birdek rioya etişi va hamda davlat xizmatlarini bajarişda davlatning yagona manbasi bölgan xalqni öz hayotidan rozi bölib yaşaşlari uçun munosib şaroit yaratişda iştirok etişdir.

Professor M.Bekmurodov adolat tuşunçasiga “Adolat inson qalbidagi eng asosiy tuyğudir, jamiyatda barça tuşunçalarning eng asosiysi va oliyjanobidir. Adolat har doim ommani katta iştiyoq bilan talab qiladigan ehtiyojidir. U diniy e’tiqodimiz mohiyatining mazmunidir, xuddi şu bilan birga, u ehtiyotkorlikning ham bir körinişidir. Adolat çuqur yaşirin e’tiqod obyekti va barça ilmlarning boşlanişi, örtasi va oxiridir” deb, ta’riflagan [13, – B. 145].

Örta asrlar Ğarbiy Yevropa mutafakkirlaridan Foma Akvinskiy (1225-1274) jamiyatda inson fazilatlarni va uning yaxşi xulq-atvorini hamda tabiatini takomillaştiriş davlat va jamiyatni boşqarişda ratsional yondaşuvga yordam beradi deb bilgan. Insoniy fazilatlar öz mazmuniga köra farqlanadi, aqliy (intellektual) va asosiy fazilatlar aqliy fazilatlarga donolik, tarbiya va ehtiyotkorlik kirsa, asosiy fazilatlarga ehtiyotkorlik, halollik, adolat, mötadillik va qat’iyatlilik kabi fazilatlar kiradi. Şuningdek, u adolat va rahm-şafqat hukmdor irodasini töğri boşqaradi. Ehtiyotkorlik ezgu işlar uçun zarur, çunki u aqlni rivojlantiradi, inson tabiatiga xos turtki va intilişlarni tiyib turadi. Axloqiy fazilatlarning eng muhimi halollik va adolatdir, çunki uning asosi birinçi navbatda aqldir deb ta’kidlaydi [14, – S. 145].

Bizningça, Foma Akvinskiyning jamiyat haqidagi qaraşlarining markazida halollik va adolat bölgan, şuningdek uning davlat, siyosat va huquqqa doir ta’limotlarida ham aynan halollik va adolat tamoyiliga asoslangan holda bayon qilgan. U mamlakat fuqarolari orasida ijtimoiy hayot va yaşaş uçun zarur bölgan resurslardan foydalanişda boşqa fuqarolarga zarar yetkazadigan bölsa va bunga turli yöllar bilan imtiyozlarni davlat hukmdorlari tomonidan berilgan bölsa, adolat buzilgan va eng katta gunoh deb hisoblagan. Foma Akvinskiyning örta asrlar Yevropasida sodir bölgan korrupsion holatlarni ilk bor talqin qilgan mutafakkir deb ta’riflaş mumkin.

Rojer Bekon (1214-1292) ham “Buyuk inşo” nomli asarini turli muammolarni örganişga bağişlagan. Dastlab, u jamiyatda yaşayotgan insonlar xatolarining sabablari örgangan, söngra öşa davrlarning umumiy muammosini örganib, bu muammolarning bir-biriga boğliq jihatlarini tahlil qilgan. Şuningdek, Rojer Bekon “Kiçik inşo”, “Uçinçi inşo” va “Falsafa töplami” asarlarida falsafa va ilohiyot örtasidagi munosabatlarni örganişga, davlat boşqaruvi, davlat xizmatçilarining şaxsiy fazilatlari hamda jamiyat haqidagi qaraşlarini bayon etgan [15, – P. 145]. Rojer Bekonning ta’kidlaşiça “Inson jaholatining tört sababi bor: noloyiq hokimiyatga tayaniş, jamiyatda yomon odatlarning doimiy turib qolişi, johil bilimsiz va nodon olomon fikrining ustunligi, har qanday jinoyat va jaholatni oqlovçi turli hikmatlar bilan yaşaşdir. Şuning uçun bu illatlar bizga ajdodlarimizdan ötib kelgan, bu odat tusiga kirgan, odatda qabul qilingan. Eng açinarlisi bu masalada johillar bilan bahslaşiş befoyda. Bunday illatdan qutilişning yagona yöli johillarning dalillarini rad etiş kerak va ğayrioddiy emas, balki haqiqat bölgan donolik bilan yondaşiş kerak” [16, – S. 866–877].

Fikrimizça, Rojer Bekon, odamlarni ijtimoiy hayotini yaxşilaş, har sohada adolatni örnatiş hamda davlat va jamiyatni oqilona boşqariş uçun jamiyatga ilmli odamlar zarurligini ta’kidlagan. Avom, ya’ni ilmsiz, halollik va adolatni töğri anglamaydigan odamlar davlat hokimiyatini boşqarsa,

bunday davlatda zalolat va baxtsizlik avj oladi. Aks holda jamiyat rivojlanişdan töxtab, jamiyat vakillari özining notöğri işlari va notöğri qarorlarini turli yöllar bilan jamiyatga töğri deb körsatadilar, degan xulosaga kelgan.

Fransuz faylasufi Etyen Jilson Rojer Bekonning jamiyat haqidagi qaraşlarini XIII asrda va hatto Ogyust Kontgaça bölgan davrda yagona deb baholab, uning butun insoniyatni birlaştiruvçi universal jamiyat yaratiş uçun ilmiy, falsafiy va diniy bilimlarni sintez qilişga intilganini ta'kidlaydi [17, – S. 364].

Ğarbiy Yevropa örta asrlarida davlat va jamiyat boşqaruviga doir öz konsepsiyasini işlab çiqqan yana bir Ğarb mutafakkiri Nikkolo Makiavelli (1469-1527) "Hukmdor" asarida "Odamlarning xatti-harakatlarini bir xil hirs va intilişlar belgilaydi. Inson tabiatining zaminida amalparastlik, ğarazgöylik yotadi. Jamiyatdagi ba'zi odamlar subutsiz, noşukur, qörqoq, hasadgöy boşqalarni köra olmaydigan xossalarga egadirlar. Qobiliyati çeklangan bölsa ham öz imkoniyatlari çegarasidan taşqaridagi xohişlariga erişiş uçun heç narsadan toy tortmaydilar. Ular doim hozirgi kundan norozi, ötmişni maqtaydilar, taqlid qilişni sevadilar, lekin yaxşi narsalarga nisbatan yomon odatlarni tezroq özlaştiradilar. Inson – özining dunyoga kelişini batamom asosli ravişda katta yiği bilan olqişlovçi eng ojiz va şörpeşona maxluqdir", deb ta'riflagan [18, – S. 38].

Nikkolo Makiavelli "Hukmdor" asarining xotimasida "Men hukmdorlarga zolim bölişni, unga böysunuvçi tobelarga (mamlakat fuqarolariga) esa uşbu zulmdan qanday qutulişni örgatganman" [18, – S. 95], deb yozadi. Şu tariqa u noroziliklarni bostiriş yöllari bilan birga xalqning zulmdan qutuliş yöllarini ham körsatib, davlat va jamiyat xatti-harakatlarining oqibatlarini modellaştirib bergan. Uşbu sözlarni sotsiologik tahlil qilsak, fuqarolar xulqi va ijtimoiy kayfiyatidagi özgarişlarni doimiy örganib boriş lozim: davlatga işonçsizlik va ijtimoiy qiyinçiliklar odamlarni qonunlarni buzişga olib keladi, davlat esa bunday betartiblik siyosiy harakatga aylanmasligi uçun tezda çora köradi. Aksinça, amaldorlar vakolatlarini suiiste'mol qilib, jamiyatga zulm ötkazsa, Makiavelli odamlarga bunday zulmdan qutuliş yöllarini örgatgan.

Şu örinda Makiavellining maşhur iborasini keltirib ötiş mumkin. Jumladan, "Milliy davlatni quriş va mustahkamlaşda davlat amaldorlari şerdek dovyurak, tulkidek ayyor bölişi, agar pirovard maqsad foydali bölsa, öz va'dalarini bajarmasligi ham mumkin, çunki yuksak natijalar xuddi şunday yöl tutgan knyazlarga nasib etgan. Şafqatsizlikni, agar bir marotaba, unda ham fuqarolar manfaati uçun qöllanilgan taqdirda oqlaş mumkin, lekin fuqarolarni eziş uçun doimiy ravişda qöllanilsa, uni oqlaş mumkin emas" [18, – S. 28]. Bu bilan Makiavelli davlat boşqaruvini va davlat xizmatlarini amalga oşirişda ba'zi bir istisno qiladigan holatlarni tavsiflab, hukmdorning vakolatlari çegarasini va faqat davlat va jamiyat manfaatlari uçun zarur hollarda amalga oşirişi mumkinligi keltirib ötiş mumkin.

Yevropa ma'rifatparvarlik davridagi mutafakkirlaridan biri Tomas Gobbsning (1588-1679) özining "Leviafan" asarida insonlarning davlat paydo bölgunigaça bölgan davrdagi hayotini tasvirlab, unda "Xaos" va "Ixtilof"lar hukmron bölganligini ta'kidlaydi yoki bu hukmronlikni "Hammaning hammaga qarşi uruşi" holati sifatida qayd etib, bunday holatdan çiqişning yagona yöli bu – ijtimoiy şartnoma tuziş deb bilgan [19]. Gobbs ijtimoiy şartnomaning şartlari sifatida, ötgan xafagarçiliklarni keçiriş, boşqalarga hurmat, öz tabiatiga köra odamlar teng ekanligini tan olişi, jamiyat ijtimoiy strukturasidagi ijtimoiy toifalarni ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar özi kabi odam deb qabul qiliş kabi şartlarni keltirib ötgan. Gobbsning ta'kidlaşiça davlat ham mana şu şartnoma mahsulidir. Odamlar umumiy tinçlik va öz muhofazasini ta'minlaş uçun ixtiyoriy ravişda uruş holatini bartaraf qilişga qodir hokimiyatni joriy qilişga kelişadilar. Bu kelişuvda har bir individ davlat foydasiga öz erkidan voz keçadi [19, – S. 505].

Fransiya ma'rifatparvari Şarl Lui Monteskyo (1689-1755) özining "Qonunlar ruhi" asarida har bir qonunning ruhi bir qança aniq şart-şaroitlar bilan belgilanişini va bu şart-şaroitlarning har biri öziga xos ahamiyat kasb etişini asoslab bergan. Qonun çiqaruvçi birinçi navbatda iqlim bilan hisoblaşişi zarur. Issiq iqlim xalqni noziklaştiradi va erinçoq qiladi. Şuning uçun bu yerda jazo bilan qörqitiş odamlarni işlaşga majbur qiladi. Davlat despotizm şaklida böladi. Yerning hosildorligi, toğlar va orollar, tekisliklar, ya'ni iqtisodiy muhit, dinning roli ham qonunlar ruhiga ijobiy ta'sir qiladi, deb hisoblaydi [20, – S. 288].

Bizningça, Monteskyoning konsepsiyasida sotsiologiya uçun muhim jihatlar bor deyiş mumkin. Davlat tomonidan joriy qilingan normalar odatda universal körinişga ega böladi. Ammo davlat hududlarning geografik iqlim şaroitida yaşovçi aholi uçun doim ham mos kelmaydi. Şu sababdan jamiyatning huquqiy normalarga rioya etiş darajasi tuşib ketib uning örnini turliça lokal yoki etnik normalarni yaratilişiga şaroit yaratadi. Bu öz navbatida özboşimçalikni va davlat normalariga bölgan itoatkorlikka salbiy ta'sir qilişi mumkin. Şuni ham ta'kidlaş lozimki, Monteskyoning köplab nazariyalari sotsiologiyaning etnosotsiologiya qismiga öxşaşdir. Monteskyoning "Qonunlar ruhi" asarini Ogyust Kontgaça bölgan davrdagi Yevropadagi ilk sotsiologik asar deb baholaş ham mumkin.

Şarq va Ğarb mutafakkirlarining davlat xizmatida halollik va adolatga doir qaraşlari quyidagi jadvalda umumlaştirildi (1-jadval).

1-jadval

Şarq va Ğarb mutafakkirlarining davlat xizmatida halollik va adolatga doir qaraşlarining qiyosiy tahlili

Mutafakkir	Asosiy asari	Davlat xizmatida halollik va adolatga doir asosiy ğoya
Abu Nasr Forobiy	"Fozil odamlar şahri"	Adolatli davlatni ma'rifatli, adolatparvar hukmdor boşqaradi; rahbar xalq içidan çiqqan eng munosib kişi bölişi lozim
Nizomulmulk	"Siyosatnoma"	Amaldorlar axloqiy fazilatlariga qarab tanlanadi; nopok va johil kişilar davlat işiga qöyilmaydi, faoliyat muntazam nazorat qilinadi
Amir Temur	"Temur tuzuklari"	Vakolatni suiiste'mol qiliş va xazinaga xiyonat qat'iy jazolanadi; amaldorlarning moddiy ta'minotiga e'tibor beriladi
Alişer Navoiy	"Saddi Iskandariy", "Mahbub ul-qulub"	Hukmdor – boğbon, davlat – boğ: dono va adolatli boşqaruv jamiyat farovonligi va birligini ta'minlaydi
Foma Akvinskiy	"Ilohiyot jamlanmasi" ("Summa theologiae")	Halollik va adolat – axloqiy fazilatlarning eng muhimi; imtiyozlar orqali boşqalarga zarar yetkaziş adolatni buziş hisoblanadi
Rojer Bekon	"Buyuk inşo"	Jaholat va noloyiq hokimiyatga tayaniş illatlarini bartaraf etiş uçun davlatni ilmli, halol kişilar boşqarişi zarur
Nikkolo Makiavelli	"Hukmdor"	Hukmdor vakolatlari faqat davlat va jamiyat manfaati bilan çeklanadi; fuqarolarni eziş uçun qöllanilgan zöravonlik oqlanmaydi
Tomas Gobbs	"Leviafan"	Davlat ijtimoiy şartnoma mahsuli; hokimiyat umumiy tinçlik va fuqarolar xavfsizligini ta'minlaşi lozim
Şarl Lui Monteskyo	"Qonunlar ruhi"	Qonunlar jamiyatning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy şaroitlariga mos bölişi kerak, aks holda huquqiy normalarga itoat pasayadi

Manba: muallif tomonidan [7–11; 14–20] manbalar asosida tuzilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Örta asrlarda Şarq va Ğarbiy Yevropa mutafakkirlari asarlaridagi davlat va jamiyat boşqaruviga doir ta'limotlarini nazariy tahlil qiliş davlat siyosatining deyarli barça jabhalari ijtimoiy ehtiyojdan kelib çiqqan. Ammo, şuni ham ta'kidlaş lozimki, Şarq va Ğarb mutafakkirlarini davlat xizmatida halollik va adolatni tuşuniş va anglaşda farqlar bor. Şarq doim jamoaviylikka intilib har bir davlat tomonidan joriy qilingan normalar umum manfaatga qaratilganligi va davlat xizmatçilarining halol va adolatli bölişi asosiy talab bölgan bölsa, Ğarbda asosan individuallikka va davlat va jamiyat örtasida ma'lum bir kelişuvlarni ilgari surgan. Şarq va Ğarb mutafakkirlarining ta'limotidagi umumiy öxşaşlik jamiyat xaos, betartiblik, avtokratiyaga qarşi bölgan. Şarqda birinçi renessans bölganligi sababli Şarq Ğarbdan ança oldin demokratik davlatga xos bölgan davlat boşqaruv elementlarini davlat boşqaruvida şakllantirgan. Şuningdek, Şarq va Ğarb mutafakkirlarining ta'limotlarini qiyosiy tahlil qiliş siyosiy hodisalarning ijtimoiy sabablari va zarurati, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarga bölinişga ta'siri, jamiyat vakillarining tafakkur darajasini tahlil qiliş, davrlar ötişi bilan ijtimoiy ongidagi evolyutsion özgarişlarni tahlil qiliş imkonini beradi. Zero, sotsiologik yondaşuv har qanday siyosiy va ijtimoiy hodisalarni jamiyat va şaxs uçun foydali yoki zararli ekanligini aniqlaş, ijtimoiy birdamlik, farovonlik, halollik, adolat, erkinlik, şaxs ijtimoiy maqomini e'tirof etiliş darajasiga baho berişni talab qiladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Özbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarşi kuraşiş töğrisida"gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar, ÖRQ-419-son. URL: https://lex.uz/docs/3088008; Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Özbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarşi kuraşiş tizimini takomillaştiriş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi PF-6013-son Farmoni. 2020-yil 29-iyun. URL: https://lex.uz/docs/4875784 (Law of the Republic of Uzbekistan "On Combating Corruption" No. ZRU-419 of January 3, 2017; Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-6013 of June 29, 2020 "On additional measures to improve the anti-corruption system in the Republic of Uzbekistan")
2. Özbekiston Milliy ensiklopediyasi. "H" harfi. – Toşkent: "Özbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy naşriyoti, 2000. – B. 632. (National Encyclopedia of Uzbekistan. Letter "H". – Taşkent, 2000. – P. 632)
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjimasi. – Toşkent: "Şarq", 2001. – B. 26–28. (Avesta. A historical and literary monument / Translated by Askar Makhkam. – Taşkent: Şarq, 2001. – P. 26-28)
4. Abdullayev A.G. Şarq davlat boşqaruviga doir sotsiologik ta'limotlarning Ğarb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta'siri: monografiya. – Toşkent: "ZEBO PRINT", 2024. – B. 75. (Abdullayev A.G. The methodological influence of Eastern sociological teaçings on public administration on Western civilizational processes: monograph. – Taşkent: ZEBO PRINT, 2024. – P. 75)
5. Boboyev H., Döstjonov T., Hasanov S., Ollamov Ya. "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi örni. – Urganç: "Xorazm" naşriyoti, 2002. – B. 310. (Boboyev H., Dustjonov T., Khasanov S., Ollamov Ya. The Avesta and its place in human development. Urgenç: Khorezm, 2002. P. 310)
6. Rahmatullayev Ş. Özbek tilining etimologik luğati (arab sözlari va ular bilan hosilalar). – Toşkent: Universitet naşriyoti, 2003. – B. 15. (Rakhmatullayev Ş. Etymological dictionary of the Uzbek language (Arabic words and their derivatives). – Taşkent: University Press, 2003. – P. 15)
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar şahri. – Toşkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi naşriyoti, 1993. – B. 190. (Abu Nasr al-Farabi. The virtuous city. Taşkent: A. Qodiriy Publişing House, 1993. – P. 190)
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar şahri / Tarjimonlar: A.Irisov, M.Mahmudov, U.Otajon; mas'ul muharrirlar: M.Xayrullayev, M.Jakbarov. – Toşkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 244–245. (Abu Nasr al-Farabi. The virtuous city / Translated by A. Irisov, M. Makhmudov, U. Otajon. – Taşkent: Yangi asr avlodi, 2016. – P. 244-245)

9. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Ikkinçi töldirilgan, qayta işlangan naşri. – Toşkent: “Yangi asr avlodi”, 2017. – B. 98-100. (Nizam al-Mulk. Siyasatnama (The Book of Government). 2nd revised ed. Taşkent: Yangi asr avlodi, 2017. P. 98-100)

10. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toşkent: Özbekiston, 2014. – B. 105. (Amir Timur. The Institutes of Timur. – Taşkent: Uzbekistan, 2014. – P. 105)

11. Alişer Navoiy. Tanlangan asarlar. 13-tom. – Toşkent, 1981. – B. 115. (Alişer Navoi. Selected works. Vol. 13. – Taşkent, 1981. – P. 115)

12. Mirziyoyev Ş.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uçun. – Toşkent: “Özbekiston” naşriyoti, 2022. – B. 145. (Mirziyoyev Ş.M. For human dignity, rights, freedoms and legitimate interests. – Taşkent: Uzbekistan, 2022. – P. 145)

13. Bekmurodov M.B. Ijtimoiy taraqqiyot va jamoatçilik fikri: monografiya. – Toşkent: “Xalq ta’limi”, 1997. – B. 33. (Bekmurodov M.B. Social progress and public opinion: monograph. – Taşkent: Khalq talimi, 1997. – P. 33)

14. Akvinskiy F. Summa teologii. Ç. I / Per. S.I. Yeremeyeva, A.A. Yudina. – Kiyev: Nika-Tsentr, 2002. – S. 9–10. (Thomas Aquinas. Summa Theologiae. Part I / Transl. by S.I. Eremeev, A.A. Yudin. Kyiv: Nika-Center, 2002. – P. 9-10)

15. Lindberg D.C. Roger Bacon’s Philosophy of Nature. A Critical Edition, with Engliş Translation, Introduction, and Notes, of De multiplicatione specierum and De speculis comburentibus. – Oxford: Clarendon Press, 1983. – P. 178.

16. Bekon R. Bolşoye soçineniye // Antologiya mirovoy filosofii: v 4-kh tomakh. T. 1, ç. 2. – Moskva: Mysl, 1969. – S. 862–877. (Bacon R. Opus Majus // Anthology of world philosophy in 4 volumes. Vol. 1, part 2. – Moscow: Mysl, 1969. P. 862–877)

17. Jilson E. Filosofiya v Sredniye veka. Ot istokov patristiki do kontsa XIV veka. – Moskva: Respublika, 2004. – S. 364. (Gilson E. Philosophy in the Middle Ages. From the origins of patristics to the end of the 14th century. Moscow: Respublika, 2004. P. 364)

18. Makiavelli N. Gosudar / Per. G.Muravyevoy. – Moskva: Khudozhestvennaya literatura, 1982. – S. 28, 38, 95. (Maçiavelli N. The Prince / Transl. by G. Muravyeva. – Moscow: Khudozhestvennaya literatura, 1982. – P. 28, 38, 95)

19. Gobbs T. Leviafan / Per. A. Gutermana. – Moskva: AST, 2021. – S. 505. (Hobbes T. Leviathan / Transl. by A. Guterman. – Moscow: AST, 2021. – P. 505)

20. Aron R. Etapy razvitiya sotsiologiçeskoy mysli / Obşç. red. i predisl. P.S.Gureviça. – Moskva: Progress; Politika, 1992. – S. 288. (Aron R. Main Currents in Sociological Thought / Ed. by P.S. Gureviç. – Moscow: Progress; Politika, 1992. –P. 288)

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000